

DEUTSCH**1. Welches Substantiv passt nicht in die Reihe nach seinem Geschlecht?**

- A) Block
- B) Kuli
- C) Pinsel
- D) Heft

2. Ergänzen Sie:

Die Großeltern haben ... zum Geburtstag gratuliert.

- A) mich
- B) ihm
- C) ihr
- D) mir

3. Ergänzen Sie:

Ich suche ein klein... Geschäft in der Nähe der Uni.

- A) -es
- B) -en
- C) -er
- D) -e

4. Ergänzen Sie:

Nachdem wir im Sprachlabor ..., gingen wir in unser Klassenzimmer.

- A) gearbeitet hatten
- B) arbeiteten
- C) gearbeitet haben
- D) arbeiten

5. Welcher Satz im Passiv entspricht dem angeführten Satz?

Leider gießt sie das Bäumchen zu wenig.

- A) Leider wird das Bäumchen von ihr zu wenig gegossen.
- B) Leider wurde das Bäumchen von ihr zu wenig gegossen.
- C) Leider ist das Bäumchen von ihr zu wenig gegossen worden.
- D) Leider war das Bäumchen von ihr zu wenig gegossen worden.

6. Ergänzen Sie:

Ich mag ihn nicht besonders, ... muss ich ihm für seine Leistung danken.

- A) trotzdem
- B) aber
- C) oder
- D) deshalb

7. Ergänzen Sie:

... der Verband gegründet wurde, zählte er nur wenige Mitglieder.

- A) Wenn
- B) Als
- C) Bevor
- D) Wann

8. Ergänzen Sie:

Ist es erlaubt, einen Freund zu der Party ...?

- A) mitzubringen
- B) bringen mit
- C) zu mitbringen
- D) mitbringen

9. Ergänzen Sie:

Endlich haben wir die Wohnung in Ordnung

- A) gebracht
- B) gemacht
- C) geschafft
- D) geklappt

10. Welches Verb bildet Partizip II nach diesem Schema?

ge- /... /- en

- A) laufen
- B) bringen
- C) bekommen
- D) passieren

Nemis tili fanidan ayrim test topshiriqlarini bajarish yuzasidan tavsiyalar

1-test topshirig'i

Welches Substantiv passt nicht in die Reihe nach seinem Geschlecht?

- A) Kuli B) Pinsel C) Block D) Heft

Topshiriqning bajarilishi:

Ushbu topshiriqni bajarish uchun quyidagi otlarning rodini bilish talab etiladi: *der Kuli, der Pinsel, der Block, das Heft*. Javob variantlarida berilgan soʻzlarga ahamiyat bersak, *das Heft* soʻzidan tashqari barchasi mujskoy roddagi otlardir, *das Heft* soʻzi esa sredniy rodga taalluqli soʻz sifatida ajralib turibdi. (Manba: 5-sinf "Deutsch", Mahbuba Qiyomova, 172-bet)

Toʻgʻri javob: D) *das Heft*

3-test topshirig'i

Ergänzen Sie:

Ich suche ein klein... Geschäft in der Nähe der Uni.

- A) - es B) - en C) - e D) - er

Topshiriqning bajarilishi:

Sifatga qanaqa qoʻshimcha qoʻshish kerakligini aniqlash uchun sifatdan oldinda turgan soʻzga, ushbu sifat tegishli boʻlgan otning rodi va padejiga ahamiyat berish kerak. Sredniy rod va *Akkusativ* padejidagi sifatlar uchun noaniq artikldan keyin – *es* qoʻshimchasi qoʻyiladi. (Manba: 7-sinf "Assalom Deutsch", Natalja Suchanowa, 60-bet)

Toʻgʻri javob: A) - *es*

7-test topshirig'i

Ergänzen Sie:

... der Verband gegründet wurde, zählte er nur wenige Mitglieder.

- A) Wenn B) Als C) Bevor D) Indem

Topshiriqning bajarilishi:

Bu topshiriqni bajarish uchun birinchi navbatda ergash gapda qaysi bogʻlovchini qoʻllash kerakligini, aynan qaysi bogʻlovchi mazmunan mos kelishini aniqlab olish zarur. Topshiriqdagi gapga mazmunan *Wenn* va *Als* bogʻlovchilari mos kelmoqda. *Wenn* bogʻlovchisi takroriy harakatlarni ifodalovchi gaplarda ishlatiladi. Bu gapda esa harakat takrorlanmayapti. Demak, toʻgʻri javob *Als* bogʻlovchisi.

(Manba: 7-sinf "Assalom Deutsch", Natalja Suchanowa, 80-bet)

Toʻgʻri javob: B) *Als*

8-test topshirig'i**Ergänzen Sie:**

Ist es erlaubt, einen Freund zu der Party ...?

- A) mitzubringen B) bringen mit C) zu mitbringen D) mitbringen

Topshiriqning bajarilishi:

Ushbu topshiriqni bajarish uchun sizdan infinitivni kerakli shaklga qo'yish talab etiladi. *es ist erlaubt* so'z birikmasidan keyin **Infinitiv mit zu** ishlatiladi. **mitbringen** fe'li **mit** old qo'shimchasiga ega, **zu** ko'makchisi esa old qo'shimcha va **mitzubringen** fe'li o'rtasiga qo'yiladi. (Manba: 8-sinf, "Assalom Deutsch", Natalja Suchanowa, 125-bet)

To'g'ri javob: A) mitzubringen**10-test topshirig'i****Welches Verb bildet Partizip II nach diesem Schema?****ge- /... /- en**

- A) laufen B) bringen C) bekommen D) passieren

Topshiriqning bajarilishi:

Bu topshiriqni bajarish uchun **Partizip II** yasalishini bilish zarur. Ushbu sxema qoidaga bo'y sunmaydigan, ajralmas old qo'shimchasi bo'lmagan fe'llar uchun mos keladi (buni **-en** qo'shimchasi ko'rsatib turibdi). (Manba: 6-sinf "Assalom Deutsch", Natalja Suchanowa, 25-bet)

To'g'ri javob: A) laufen

Test topshiriqlari javoblari

№	Javob
1	D
2	D
3	A
4	A
5	A

№	Javob
6	A
7	B
8	A
9	A
10	A